

UDK: 37.013:811.512.133

**KELAJAKDAGI INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA LINGVODIDAKTIK
KOMPETENSIYANI KONSTRUKTIV TA‘LIM MODELI ASOSIDA
SHAKLLANTIRISH****Bakhriddinova Dilafruz Nasriddinovna,***O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti, PhD.**Email: dilafruz.bahriddinova@mail.ru***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18666277>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini konstruktiv yondashuv asosida shakllantirish va rivojlantirish muammolari tahlil etiladi. Tadqiqotda konstruktiv yondashuvning nazariy hamda pedagogik asoslari keng yoritilib, uning xorijiy tillarni o‘qitish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati asoslab berilgan. Olingan natijalar kelajakdagi ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: konstruktiv yondashuv, lingvodidaktik kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv metodlar, kasbiy refleksiya.

Abstract. This article analyzes the issues of developing the linguodidactic competence of future English teachers based on a constructivist approach. The study outlines the theoretical and pedagogical foundations of the constructivist approach and reveals its significance in the process of teaching foreign languages. The findings of the research are of practical importance for improving the professional training of future English teachers.

Keywords: constructivist approach, linguodidactic competence, competency-based approach, interactive methods, professional reflection.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы развития лингводидактической компетенции будущих преподавателей английского языка на основе конструктивистского подхода. В исследовании раскрываются теоретико-педагогические основы конструктивистского подхода и показано его значение в процессе обучения иностранным языкам. Результаты исследования имеют практическую значимость для совершенствования профессиональной подготовки будущих преподавателей английского языка.

Ключевые слова: конструктивистский подход, лингводидактическая компетенция, компетентностный подход, интерактивные методы, профессиональная рефлексия.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida ingliz tilini o‘qitish sifati va samaradorligiga bo‘lgan talablar izchil oshib bormoqda. Ta‘lim tizimida faoliyat yurituvchi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisidan nafaqat mukammal til bilimlari, balki ushbu bilimlarni ta‘lim jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llay olishni ta‘minlovchi lingvodidaktik kompetensiya ham talab etilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, oliy pedagogik ta‘lim jarayoniga innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Konstruktiv yondashuv ta‘lim oluvchining bilimlarni tayyor shaklda o‘zlashtirishini emas, balki ularni mustaqil faoliyati, shaxsiy tajribasi hamda refleksiya asosida shakllantirishini nazarda tutadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini, xususan lingvodidaktik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali

pedagogik mexanizm hisoblanadi. Ushbu maqolada konstruktiv yondashuvning nazariy-pedagogik imkoniyatlari va uning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi.

Shu bilan birga, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida konstruktiv yondashuv ta'lim mazmuni, metod va shakllarining integratsiyasini taqozo etadi. Bunda muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, reflektiv faoliyat hamda interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalar tilni o'qitish jarayonini real pedagogik vaziyatlar asosida anglaydi va tahlil qiladi. Natijada, ular nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali darslarni loyihalash va tashkil etish ko'nikmalarini egallaydi, bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi lingvodidaktik kompetensiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda pedagogik ta'limda konstruktiv yondashuv muammosi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Konstruktiv yondashuvning nazariy asoslari J. Piaget, L.S. Vygotskiy va J. Brunerlarning ilmiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Piaget bilimlarning shaxsning faol aqliy faoliyati jarayonida shakllanishini ta'kidlab, ta'lim oluvchini bilim yaratuvchi subyekt sifatida talqin qiladi. [6; 182-b.] Vygotskiy esa bilimlarning ijtimoiy muhit va hamkorlik asosida rivojlanishini asoslab, "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasini ilgari suradi. [10; 159-b.] Brunerning kashfiyotga asoslangan ta'lim haqidagi g'oyalari konstruktiv yondashuvning pedagogik ahamiyatini yanada kuchaytiradi. [3; 92-b.] Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida konstruktiv yondashuv tilni real kommunikativ vaziyatlarda o'zlashtirishga yo'naltirilgan faol ta'lim konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. H.D. Brown samarali til o'qitish jarayonida o'quvchining shaxsiy tajribasi, motivatsiyasi va faol ishtiroki hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi. [2; 500-b.] J. Richards va T. Rodgers esa ingliz tili o'qitish metodlarini tahlil qilib, o'qituvchining metodik tayyorgarligi va didaktik bilimlarini lingvodidaktik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Ushbu tadqiqotlar konstruktiv yondashuvning ingliz tili o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. [8; 298-b.]

Lingvodidaktik kompetensiya tushunchasi ko'plab olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan bo'lib, uning mazmuni lingvistik, metodik va kommunikativ komponentlarning integratsiyasiga asoslanadi. D.Hymes kommunikativ kompetensiya nazariyasini ilgari surib, til bilimlarining real muloqot jarayonida qo'llanishi muhimligini asoslab bergan. [4; 269-b.] Mahalliy tadqiqotchilar, xususan J.Jalolov xorijiy tillarni o'qitishda o'qituvchining metodik mahorati va didaktik bilimlarini lingvodidaktik kompetensiyaning asosiy ko'rsatkichlari sifatida belgilaydi. [5; 432-b.] Ushbu yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyatini

oshiradi. Shuningdek, adabiyotlarda konstruktiv yondashuv asosida lingvodidaktik kompetensiyani rivojlantirishda reflektiv faoliyat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli alohida ta'kidlanadi. D.A.Schön reflektiv amaliyot o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim omil ekanligini ko'rsatadi. [9; 374-b.] M.Warschauer esa raqamli texnologiyalar til o'rganish jarayonini interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. [11; 250-b.] Mazkur tadqiqotlar konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar yaratishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Konstruktiv yondashuvning mazmuni va mohiyati J.Piaget [6], L.S.Vygotskiy [13] hamda J.Brunerlarning [3] ilmiy qarashlari asosida o'rganildi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini rivojlantirishda konstruktiv yondashuv doirasida quyidagi pedagogik usullar tanlab olindi:

- muammoli vaziyatlar asosida o'qitish;
- hamkorlikda o'rganish shakllari;
- interaktiv metodlardan foydalanish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish;
- reflektiv faoliyat va portfoliolar orqali baholash.

Mazkur metodlar nazariy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot bilan uyg'unlikda qo'llanildi.

Mazkur tadqiqotda tanlangan metodlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyat jarayonida shakllantirishni ko'zda tutadi. Xususan, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, pedagogik muammolarni tahlil qilish va optimal yechimlar ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlantirildi. Hamkorlikda o'rganish shakllari esa talabalarning kommunikativ faolligini oshirish, jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish hamda o'zaro tajriba almashish imkoniyatini yaratdi.

Shuningdek, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Bu jarayonda raqamli resurslar, multimediyaviy vositalari hamda onlayn platformalar orqali talabalar o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llash imkoniga ega bo'ldilar. Reflektiv faoliyat va portfoliolar asosida baholash esa bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini tahlil qilish, kasbiy rivojlanish dinamikasini anglash hamda lingvodidaktik kompetensiyaning shakllanish darajasini aniqlashga imkon berdi.

Natijalar. Olib borilgan tahlillar konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan:

- talabalar tomonidan metodik muammolarga mustaqil yechim topish ko'nikmalari shakllandi;
- hamkorlikdagi faoliyat jarayonida kommunikativ va kasbiy muloqot madaniyati rivojlandi;
- interaktiv mashg'ulotlar talabalar faolligi va ta'lim motivatsiyasini oshirdi;
- AKT vositalaridan foydalanish til o'rganish jarayonini amaliy va qiziqarli tashkil etishga imkon yaratdi;
- refleksiya va portfoliolar asosida baholash orqali talabalarning kasbiy rivojlanish dinamikasi kuzatildi.

Natijada lingvodidaktik kompetensiyaning lingvistik, metodik, kommunikativ va refleksiv tarkibiy qismlarining o'zaro integratsiyasi ta'minlandi.

Qolaversa, tadqiqot natijalari konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish ko'nikmasini shakllantirganini ko'rsatdi. Talabalar darslarni rejalashtirish, o'quv materialini tanlash va mos metodlarni qo'llash jarayonida o'z kasbiy pozitsiyasini asoslab bera olish, o'quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olish hamda ta'lim jarayonini samarali boshqarish malakalarini egalladilar. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida mustaqil, ijodiy va mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, yuqori darajadagi lingvodidaktik kompetensiyaga ega mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Muhokama. Olingan natijalar konstruktiv yondashuvning kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini nazariy bilimlar majmuasi emas, balki ularni real pedagogik faoliyatda qo'llash qobiliyati sifatida talqin etadi. Mazkur tadqiqot doirasida konstruktiv yondashuv ushbu talabni ta'minlovchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalari xorijiy tillarni o'qitish metodikasida faol, kommunikativ va refleksiv ta'limni ustuvor deb hisoblagan H.D. Brown [1], J. Richards va T. Rodgerslarning [8] ilmiy qarashlari bilan uyg'unlashadi. Konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik tafakkuri, kasbiy mustaqilligi va pedagogik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Shuningdek, konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida baholash tizimini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi. An'anaviy nazorat shakllari talabalarning lingvodidaktik kompetensiyasini to'liq aks ettira olmaydi, chunki ular asosan reproduktiv bilimlarni aniqlashga yo'naltirilgan. Konstruktiv yondashuv esa formatif baholashni, jumladan o'z-o'zini baholash, o'zaro baholash hamda portfoliolar asosida

monitoringni ustuvor deb hisoblaydi. Bunday baholash shakllari bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining refleksiv tafakkurini rivojlantirib, ularning kasbiy faoliyatga ongli va mas'uliyatli yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada baholash nafaqat nazorat vositasi, balki lingvodidaktik kompetensiyani rivojlantirishning muhim pedagogik mexanizmiga aylanadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, konstruktiv yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning kasbiy tayyorgarligi, refleksiv qobiliyatlari va metodik mahoratini yuksaltiradi. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta'lim tizimida konstruktiv yondashuvni keng joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari konstruktiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining lingvodidaktik kompetensiyasini tizimli va izchil rivojlantirish imkonini berishini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish orqali talabalarda innovatsion fikrlash, pedagogik muammolarga ijodiy yondashish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. Natijada, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk va zamon talablariga mos ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. — New York: Pearson Education, 2007. — 410 p.
2. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. — New York: Longman, 2001. — 500 p.
3. Bruner J. The Process of Education. — Cambridge: Harvard University Press, 1960. — 92 p.
4. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. — P. 269–293.
5. Jalolov J.J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2012. — 432 b.
6. Piaget J. The Psychology of Intelligence. — London: Routledge, 1950. — 182 p.
7. Richards J.C. Beyond Training. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 298 p.
8. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 285 p.
9. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.
10. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
11. Warschauer M. Technology and Language Learning. — Oxford: Oxford University Press, 2000. — 250 p.
12. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. — Oxford: Oxford University Press, 1978. — 165 p.
13. Выготский Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982. — 287 с.
14. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. — 2003. — № 2. — С. 58–64.
15. Шамов А.Н. Методика обучения иностранным языкам. — М.: Академия, 2010. — 352 с.